



**TIQXMMI**  
"TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ  
XO'JALIGINI MEKANIZATSIYALASH  
MUHANDISLARI INSTITUTI"  
**MTU**  
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI



**FAN:**

**ATROF-MUHITGA BO'LADIGAN TA'SIRNI  
BAHOLASH (AMBTB)**

**MAVZU**

**01**<sub>-2</sub>

**AMBTB FANINIG ASOSIY TUSHUNCHA  
VA TAMOYILLARI**



Razzakov Ruslan Ishqulovich



"Ekologiya va suv resurslarini boshqarish"  
kafedrasini katta o'qituvchisi




# Reja:


- **Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning predmeti;**
- **“Barqaror taraqqiyot” tushunchasi;**
- **Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash tushunchasi mohiyati;**
- **Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning tamoyillari;**
- **Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash jarayoni ishtirokchilari.**

# EKOLOGIK MUAMMOLAR


Ekologik muammolar quyidagilarga bo'linadilar:



**Bevosita - Faoliyatning to'g'ridan-to'g'ri oqibatlari (atmosfera, tuproq, suv va boshqa resurslarning ifloslanishi va b.)**



**Bilvosita - (axolining xayot tarzi o'zgarishi tufayli sog'ligining yomonlashishi, yoki katta to'g'onlar qurulishi tufayli zilzilalar sodir bo'lishi va x.o..).**



**Ayrim muammolar alohida loyiha miqyosida ko'rilganda sezilarsiz tuyilishi mumkin, ammo ular bir necha loyihalarning birgalikdagi ta'sirida salbiy oqibatlar keltirishi mumkin (yigindi yoki kumulyativ ta'sirlar).**

# TA'SIRLAR QUYIDAGILARGA BO'LINISHI MUMKIN

## Xarakteri va tabiati boyicha

Ta'sirlar xarakterlari "biofizikaviydan" ijtimoiy, tibbiy yoki iqtisodiygacha o'zgarishi mumkin. Shunigdek ta'sirlar xar xil tabiatga ega bo'lishi mumkin

## Miqdori bo'yicha

Keltirgan oqibatlariga ko'ra ta'sirlar sezilarsizdan juda sezilarligacha (yumshatish va monitoring tadbirlarini talab etuvchi)

## Diapozoni bo'yicha

Ta'sirlar maxalliy xarakterga ega bo'lishi yoki mintakaviy, transchegaraviy yoki global axamiyat kasb etishi

# TA'SIRLAR QUYIDAGILARGA BO'LINISHI MUMKIN

## Ta'sir vujudga kelish vaqti boyicha

Ta'sirlar darhol yoki vaqtda yashirin bo'lib kelajakda kurinishi mumkin. Masalan kontseragen ximikatlar yoki nurlanish 20 yoki 30 yil o'tib rak kasalligini keltirib chiqarishi mumkin

## Davomiyligi bo'yicha

Ta'sirlar qisqa muddatidan (qurulish jarayoni shovqini) doimiygacha ( to'g'on qurilishida suv bosishi tufayli daraxtlarni ko'chirib o'tqazish).

## Noaniqlik darajasi bo'yicha

Ta'sirlar nafaqat faoliyatlari oqibatlarining miqyosi balki ularni ro'y berishi ehtimoli bo'yicha ham o'zgarib turadi.

# TA'SIRLAR QUYIDAGILARGA BO'LINISHI MUMKIN

## Qayta tiklanish darajasi boyicha

Loyiha yakunlanishi bilan ayrim ta'sirlar oqibatlari qayta tiklanadigan va bartaraf etiladigan boshqalari esa qayta tiklanmaydigan bo'lishi mumkin

## Muhimligi bo'yicha

Ta'sir muximligi albatta uning miqdori bilan bogliq bo'lishi shart emas.

## Muhimligi bo'yicha

Ayrim xollarda kichik ta'sirlar ham (mas. kush juftining va oqibatda turning yuqolib ketishi) juda sezilarli bo'lishi va shuningdek katta miqyosdagi ta'sirlar ham nisbatan kam sezilishi mumkin.


Ta'sirlar muhimligini belgilashda yuqoridagi barcha omillar e'tiborga olinishi kerak

# AMBTB TAMOYILLARI


AMBTB jarayonlari turli mamlakatlarda ko'p jixatlari bilan farq qiladi:



Faoliyatning qaysi turi uchun AMBTB o'tkazilishi



AMBTB ni kim tomonidan o'tkazilishi



AMBTB natijalari qaysi qarorlarda qanday inobatga olinadi

## Samarali AMBTB - 3 ta asosiy tamoyili

**Birlamchilik** (AMBTB ishlari mo'ljallanayotgan faoliyatni amalga oshirish bo'yicha qarorlar qabul qilinguniga qadar o'tkaziladi va uning natijalaridan qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilishda foydalaniladi. Muqobil variantlar tahlili birlamchilik tamoyilining muhim yo'li).

**Komplekslik** (faoliyat ta'sirlarining barcha omillarini hisobga olish va ularni ta'sirlar natijasida tabiiy muhitning barcha komponentlari (havo, suv va tuproq), shuningdek ijtimoiy muhitda yuz beradigan o'zgarishlar bilan birgalikda ko'rib chiqishni nazarda tutadi).

**Demokratiklik** (AMBTB jarayonining ilmiy-texnik tadqiqot bo'lmay, balki maqbul qarorlar qabul qilish vositasi ekanligi demokratiklik tamoyilining ifodasidir)



# AMBTB

## ❖ **AMBTB:**

- ✓ Ekologik asoslash (EA) ;
- ✓ Jamoat ekologik ekspertizasi (JEE);
- ✓ Davlat ekologik eksperizasi (DEE);
- ✓ Ekologik audit (EA) dan tashqari

Barqaror taraqqiyotning ekologik omillarini doimiy hisobga olish jarayonini ham o'z ichiga oladi.

# AMBTB JARAYONI ISHTIROKCHILARI

- **Faoliyat tashabbuskori** - (Mo'ljallanayotgan faoliyatni rejalashtirish (loyihalash) va amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxslar («xozyain»). - “Ifloslovchi sarf-harajatlarni to'lashi lozim” hamda - “faoliyat tashabbuskori mo'ljallanayotgan faoliyatning ekologik jihatdan xavfsiz ekanligini isbotlab berishi lozim” kabi tamoyillardan kelib chiqqan holda aksariyat AMBTB tizimlarida AMBTBni o'tkazish bilan bog'liq barcha sarf harajatlar faoliyat tashabbuskori zimmasiga yuklatiladi.
- **Maxsus vakolatli tashkilotlar** (AMBTB jarayoni yoki belgilangan faolliyatga u yoki bu darajada aloqador bo'lgan tashkilot va muassasalar).
- **Boshqa manfaatdor tomonlar** (Faoliyatning u yoki bu jihatiga aloqador bo'lgan davlat tashkilotlari (masalan, maxsus agentliklar) yoki mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari, aholi shuningdek mustaqil ilmiy tashkilotlar AMBTBda manfaatdor tomonlar bo'lishlari mumkin.)

- **AMBTBni bajaruvchilari (professionallar)** - AMBTBning ma'lum qismlarini bajarish uchun jarayon qatnashchilari yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilishlari mumkin. Davlat tashkilotlari AMBTB hujjatlari sifatini aniqlash uchun maslahatchilarni, jamoatchilik esa mo'ljallanayotgan faoliyatning turli jihatlarini baholash uchun mustaqil ekspertlarni jalb qilishlari mumkin.
- **AMBTBni o'tkazish uchun ma'sullar.** AMBTBning aksariyat tizimlarida mazkur ishlarni bajarish ma'suliyati faoliyat tashabbuskori zimmasiga yuklatilgan.)

# MAXSUS VAKOLATLI TASHKILOTLARNING 3 TA ASOSIY FUNKSIYALARI

- **AMBTB jarayoni ustidan nazorat** (EAMMQQning tashkilotlari yoki AMBTB bo'yicha maxsus agentliklar, davlat tomonidan tashkil etiladigan davlat bo'limlari yoki mustaqil bo'limlar) AMBTB tartibiga rioya qilinishini nazorat qilish hamda tuziladigan hujjatlar sifatini tekshirish, ma'lumotlarning etariligi, ularning ishonchliligi va ta'sirlarning to'g'ri aniqlanganligi tekshirish.
- **AMBTB natijalari bo'yicha qaror qabul qilish.** Amalda barcha davlatlarda mo'ljallanayotgan faoliyatni amalga oshirilishi to'g'risidagi qaror davlat organlari tomonidan ruxsatnoma va litsenziyalar berish orqali qabul qilinadi. Bunda mo'ljallanayotgan faoliyatni amalga oshirish to'g'risidagi qarorni chiqarish uchun AMBTB ma'lumotlari asos bo'lib xizmat qiladi. Odatda AMBTB xulosalari bo'yicha qaror qabul qilish AMBTB sifatini nazorat qiluvchi tashkilot, ya'ni Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan bajariladi.
- **Mo'ljallangan faoliyatning alohida jihatlarini muvofiqlashtirish** (turli maxsus organlar, masalan suv resurslarini, o'rmonlarni, aholi salomatligini muhofaza qiluvchi agentliklar bilan)



TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ  
XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH  
MUHANDISLARI INSTITUTI



**E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!**